O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI MUZRABOT TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-17-26, muzrabod.t@exat.uz

2021 - yil 22 - sentabr 207-8-115-Q/21 Muzrabot tuman hokimligi

2022 yilda Muzrabot tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 38-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 10-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumandagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni 20 nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan tashkilotlar sonidan kelib chiqib, Muzrabot tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun 133 ta ish o‘rinlari band qilinganligi, jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 35 foiz (47 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 55 foiz (73 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 5 foiz (6 kishi);

nogironlar uchun 1 foiz (1 kishi);

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 2 foiz (3 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tusdagi majburiy choralari qoʻllanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 2 foiz (2 kishi);

odam savdosi qurbonlari uchun 1 foiz (1 kishi) miqdorida ish oʻrinlari zahirasi korxona va tashkilotlar kesimida belgilansin.

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning koʻrsatib oʻtilgan toifalari uchun ish oʻrinlari sanitariya-gigiyena meʼyorlariga va xodim oʻz mehnat majburiyatlarini toʻsiqsiz bajarishini taʼminlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq tashkil etilsin.

3. 2021 yilda Muzrabot tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish boʻyicha korxona va tashkilotlar kesimida ish oʻrinlarini tashkil etish roʻyxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ilovada koʻrsatilgan korxona va tashkilotlar rahbarlari belgilangan ish oʻrinlari tashkil etilishini toʻliq taʼminlasin.

5. Quyidagilar:

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash boʻyicha ushbu qarorni bajarmagan, shuningdek, ularni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etgan korxona va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maʼmuriy javobgarlik belgilansin.

6. Ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish sonidan ortiqcha ish oʻrinlari tashkil etgan korxona va tashkilotlar uchun Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 31 may kuni 3163-son bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019 yil 10 maydagi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi toʻgʻrisida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-sonli buyrugʻiga asosan belgilangan tartibda kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiyalar ajratish belgilab qoʻyilsin.

7. Tuman Aholi bandligiga koʻmaklashish markazi (S.Egamov) besh kun muddatda ushbu qarorni ilovasida koʻrsatilgan tashkilotlar rahbarlarining eʼtiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni taʼminlasin.

8. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab uch oydan so‘ng kuchga kirishi belgilansin.

9. Muzrabot tuman hokimining 2020 yil 28 sentyabrdagi Q-1221-sonli qarori 2022 yil 1 yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qarorni nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Achildiyev zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **E. J. Alimov**

Музработ туман ҳокимининг
2021 йил 22 сентябрдаги
207-8-115-Q/21-сон қарорига
1-илова

2022 yilda Muzrabot tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish bo`yicha korxona va tashkilotlar kesimida ish o`rinlarini tashkil etish ro`yxati

№	Korxona va tashkilotlar nomi	OKONX kodi	Joylashgan manzili	Jami ishlovchilar soni	Band qilib qo`yiladigan ish o`rinlari soni (7+8+9+10+11+12+13+14=6)	Ulardan						
						o`no‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun	safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun	nogironlar uchun	pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburiy choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun	odam savdosi qurbonlari uchun
1	*2*	*3*	4	*5*	*6*	*7*	*8*	9	*10*	*11*	*12*	13
Sanoat (10000-20000)												
1	"Indenim Agrofirmasi" MCHJ	17111	Yangi diyor	**235**	**14**	6	4	1	1		1	1
Qishloq xo‘jaligi (20000-40000)												
1	Muzrabot tumani Irrigatsiya bo‘limi	22200	Shaffof	**42**	**2**	1	1					
2	Muzrabot tumani Veterinariya bo‘limi	22200	Shaffof	**31**	**2**	1	1					
	Jami			**73**	**4**	**2**	**2**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
Transport va aloqa (40000-60000)												
Qurilish (60000-70000)												
1	Muzrabot tumani yo'l xo'jaligi pudrat ta'mirlash foydalanish korxonasi	61129	Shaffof	**71**	**3**	1	1	1				
Savdo va umumiy ovqatlanish (70000-82000)												
Axborot-hisoblash xizmati, ko'chmas mulk va umumiy tijorat faoliyati (82000-85000)												

Ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari (85000-90000)												
Uy-joy komunal xo‘jaligi va maishiy xizmatda (90000-91000)												
1	Muzrabot tuman "OBODONLASHTIRISH" boshqarmasi	90211	Yangi hayot	**128**	**4**	3	1					
2	"Toza xudud" DUK Muzrabot filiali		Yangi hayot	**59**	**2**			1			1	
	Jami			**187**	**6**	**3**	**1**	**1**	**0**	**0**	**1**	**0**
Sogliqni saqlash, sport va turizm (91000-92000)												
1	Muzrabot tuman tibbiyot birlashmasi	91511	Shaffof	**1467**	**28**	14	10	3		1		
2	Muzrabo sanitariya epedemiologik osoyishtalik markazi	91531	Shaffof	**31**	**2**		2					
	Jami			**1498**	**30**	**14**	**12**	**3**	**0**	**1**	**0**	**0**
Xalq ta`limi, madaniyat va san`at (92000-96000)												
1	11-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Muzrabot darvoza	**60**	**2**	1	1					
2	12-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Bodomzor	**89**	**3**		2			1		
3	14-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Do'stlik	**80**	**3**	1	2					
4	16-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Mehrigiyoh	**58**	**2**	1	1					
5	17-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Olmazor	**81**	**3**	1	2					
6	18-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Bogi eram	**40**	**1**		1					
7	19-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Fayziobod	**52**	**2**	1	1					
8	21-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Yurtim jamoli	**51**	**2**	1	1					
9	22-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Chegarachi	**72**	**2**	1	1					
10	23-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Mehrigiyoh	**72**	**2**	1	1					
11	25-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Xalq yo'li	**50**	**1**		1					
12	26-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Muzrabot darvoza	**61**	**2**	1	1					
13	27-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Fayziobod	**61**	**2**	1	1					
14	28-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Alpomish	**60**	**2**	1	1					
15	29-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Chegarachi	**29**	**1**		1					
16	31-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	At-Termiziy	**69**	**2**	1	1					
17	32-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Obod turmush	**78**	**3**	1	2					
18	33-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Shaffof	**107**	**4**	1	2			1		
19	34-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Sopollitepa	**38**	**1**		1					
20	36-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Yo'lchi	**35**	**1**		1					
21	37-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Alpomish	**46**	**1**		1					

22	38-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Bogi eram	**42**	**1**		1					
23	39-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Darband	**67**	**2**	1	1					
24	40-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Guliston	**61**	**2**	1	1					
25	41-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Fidokor	**50**	**1**		1					
26	42-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Tong yulduzi	**50**	**1**		1					
27	43-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Mehnatobod	**39**	**1**		1					
28	44-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Shaffof	**90**	**3**	1	2					
29	45-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Yangi diyor	**52**	**2**	1	1					
30	49-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Guliston	**39**	**1**		1					
31	53-umumiy o'rta ta`lim maktabi	92310	Nurli hayot	**38**	**1**		1					
32	10-sonli Bolalar musiqa maktabi	92310	Shaffof	**44**	**1**		1					
33	21-sonli Bolalar musiqa maktabi	92310	Yurtim jamoli	**41**	**1**		1					
34	1-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	92310	Shaffof	**36**	**1**		1					
35	5-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	92310	Navro'z	**42**	**1**		1					
36	7-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	92310	Anorzor	**39**	**1**		1					
37	8-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	92310	Oriyat	**45**	**1**		1					
38	9-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	92310	At-Termiziy	**40**	**1**		1					
39	10-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	92310	Yurtim jamoli	**33**	**1**		1					
40	12-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	92310	Yangi diyor	**35**	**1**		1					
41	15-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	92310	Obi hayot	**44**	**1**		1					
42	16-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	92310	Guliston	**43**	**1**		1					
43	17-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	92310	Fayziobod	**40**	**1**		1					
44	18-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	92310	Yangi diyor	**34**	**1**		1					
	Jami			**2333**	**70**	**18**	**50**	**0**	**0**	**2**	**0**	**0**
Moliya, kredit, sugurta va pensiya ta`minoti (96000-97000)												
1	Mikrokreditbank Muzrabot filiali	96120	Yangi hayot	**24**	1		1					
2	Xalq banki Muzrabot filiali	96120	Shaffof	**49**	2	1	1					
3	Agrobank Muzrabot filiali	96120	Shaffof	**28**	1	1						
	Jami			**101**	**4**	**2**	**2**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
Noishlab chiqarishning boshq tarmoqlarida (97000-98000)												

1	Muzrabot tuman Xalq та'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi	97600	Yangi hayot	**60**	2	1	1					
	Hammasi 56 ta			**4558**	**133**	**47**	**73**	**6**	**1**	**3**	**2**	**1**